TAJRIBADA O‘RGANILGAN QOVUN NAVLARINING VEGETATSIYA DAVRI DAVOMIYLIGI BO‘YICHA KO‘RSATKISHLARI

AQXAI dotsenti **U.Z. Abdumalikov,**
AQXAI talabasi **M.M. Abduraxmonova**

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qovun navlarining vegetatsiya davri davomiyligi jumaladan, ekish muddati, unib chiqishi, pishib yetilishi, asosiy poya uzunligi va hosildorlik ko‘rsatkishlari haqida ma’lumotlar keltirilgan.*

Аннотация: *В этой статье представлена информация о продолжительности вегетационного периода сортов дыни, включая сроки посадки, всхожесть, созревание, длину основного стебля и показатели урожайности.*

Kalit so‘zlar: *qovun, urug‘, nav, poya, meva, hosildorlik, mahsuldorlik.*

Ключевые слова: *дыня, семя, сорт, стебель, плод, урожай, урожайность.*

Respublikamizda asrlar davomida polizchilik keng rivojlangan mintaqa hisoblanib, so‘nggi yillarda bu sohaga yangi texnologiyalar joriy qilish ustida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bundan maqsad, mavjud bo‘lgan ekin maydonlarini kengaytirmasdan, yangi texnologiya va mexanizatsiyalarni joriy etib, yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishdir.

O‘zbekistonda asrlar davomida qovun va tarvuzlarning dunyoda tengi yo‘q navlari yaratilib, qovunchilik makonlari shakllangan.

Soha mutaxassislari oldida O‘zbekistonda poliz ekinlarining potensial hosilini yanada oshirish, aholini poliz mevalari bilan mumkin qadar uzoqroq vaqt ta’minlash, buning uchun esa ertapishar va uzoq vaqt saqlanuvchan navlar yaratishdek muhim masala turibdi. So‘nggi yillarda bir qancha yangi navlar

yaratildi, ularning agrotexnikasi ishlab chiqildi, fan sohasida erishilgan yutuqlarni amalda qo‘llash natijasida hosildorlik birmuncha ko‘tarildi. Shunday bo‘lsada, O‘zbekistonda ko‘p sifatli navlar ekilmay, yo‘qolib ketgan. Shularni tiklash va joriy etish hozirgi fan mutaxassislari oldidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Bu borada Samarqand Qishloq xo‘jaligi instituti hamda O‘zSPE va KITI olimlari tomonidan o‘tkazilgan seleksiya ishlari natijasida qovun-tarvuzning tezpishar navlari yaratild iva “Dehqon” navi 2009 yildan Davlat reestriga kiritildi.

Poliz ekinlari mevalari ko‘p mamlakatlarda aholining eng sevimli oziq-ovqat turlaridan hisoblanadi. Qovun mevalarining iste’mol qilinishi sabablari - 100 gr qovun tarkibida 0,6 g proteyin, 0,3 g yog‘, 7,4 g uglevod mavjud bo‘lib 33 kkal energiyaga ega.(internet tarmog‘ www.msu.com) .

Qovun –*Melo Adans* turkumiga kiradi. Bu tur 40 dan ortiq turlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekistonda yetishtiriladigan qovun navlarida besh xil gul bo‘ladi. 1-funksional erkak gullar, 2-funksional chin erkak gullar, 3-funksional urg‘ochi gullar, 4-funksional chin urg‘ochi gullar, 5-germofradit gullar. Pastdan yuqoriga qarab erkak va germofradit gullar ochilib boradi. Mevasi qovoq meva, urug‘lari endosperimsiz, yirik murtakli va ikkita yassi pallali bo‘ladi. Qovunda gulining rivojlanib borish muddati 25-30 kunni tashkil etadi. Jinsiy jixatdan olganda qovunlar poligam o‘simlik hisoblanadi. Chin erkak gullar bilan funksional erkak gullar 8 tadan iborat bo‘lgan to‘pgullar hosil qiladi, hamma tartibdagi poyalarda paydo bo‘ladi. Funksional urg‘ochi va chin urg‘ochi gullar bilan ikki jinsli ya’ni germofradit gullar yakka-yakka bo‘lib ikkinchi va uchinchi tartib poyalarda tug‘iladi. Chin erkak gullar bilan funksional erkak gullar 80-150 ta, chin urg‘ochi va funksional urg‘ochi gullar 80-150 ta ikki jinsli gullar bulardan 7 barobarga kam bo‘ladi.

Bizning olib birgan dala tajribalarimizda sinalgan navlar urug‘ini unib chiqishi – maysalar paydo bo‘lishi uchun sug‘orish tartibotini ahamiyati bo‘lmadi.

Chunki nihollarni undirib olish uchun tajriba dalasi 2025 yil 26 aprel va 2-may kunlari sug‘orildi. Natijada barcha navlar urug‘i bir muddatda 6 kunda unib chiqdi (1-jadval).

1-jadval

Qovun o‘simligining vegetatsiya davrining davomiyligi

Qovun navlari	Ekish muddati	Unib chiqishi, kun	Pishib yetilishi, kun	Asosiy poya uzunligi, sm
Golden Langkawi	25.04. 2025 yil	6	91	295
Obi novvot	25.04. 2025 yil	6	96	325
Aravakash	25.04. 2025 yil	6	100	210

Qovun ekini maysalari paydo bo‘lgandan to birinchi mevasi pishishi bo‘yicha, vegitatsiya davri quyidagilarga bo‘linadi: ertapishar 55-80 kun; o‘rtapishar 81-110 kun va kechpishar 110 kundan narisi.

Ushbu klassifikatsiyaga binoan sinalgan navlar ichida 55-80 kunlik ertapishar navlar bo‘lmagan. Uchchala nav (81-110 kun) o‘rtapisharligi kuzatildi.

Jumladan, Golden Langkawi 91 kunda, Obi novvot 96 kunda, Aravakash 100 kunda pishib yetildi.

Asosiy poya uzunligi Golden Langkawi navida 295 sm ni, Obi novvot navida 325 sm ni, Aravakash navida esa 210 sm uzunlikda bo‘ldi.

Hulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki vegetatsiya davrini davomiyligi bo‘yicha xorijiy Golden Langkawi qovun navi mahalliy Obi novvot va Aravakash qovun navlariga nisbatan 5-9 kunga erta pishib yetilishi hamda

asosiy poya uzunligi bo‘yicha Obi novvot navidan 30 sm ga kalta bo‘lib Aravakash qovun navidan 85 sm uzun bo‘lishligi aniqlandi.

Qo‘shimch ma’lumot, qovunni qishga saqlab qo’yish agarda siz qishda ham qovundan iste’mol qilishni xohlasangiz, unda bizlarning maslahatlar sizga qo’l keladi.

1-birinchi usul, muzlatish. qovunni bo’laklarga bo’lib, muzlatib oling, so’ng bitta paketga solib, muzxonaga solib qo’ying.

2-ikkinchi usul, murabbo. Albatta bunda qovunning foydali xususiyatlari yo‘qoladi, ammo uning mazali ta’midan bahramand bo’lish mumkin. 50 millilitr suv, 1 ta limon sharbati va 700 gramm shakar solib, qiyom qaynatib oling. So’ng qiyomga qovunni mayda to’g’rab soling va qaynating, qaynagandan so’ng gazni o’chirib, 10 soatga qoldiring. Shu jarayonni ikki marotaba qaytaring va sterillangan bankalarga solib yoping.



1-rasm. Golden Langkawi qovun navi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ostonaqulov.T.E. Meva-poliz va poliz mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va qayta ishlash texnologiyasi (leksiyalar kursi). Samarqand, 2006.
2. Ostonaqulov.T.E. va boshqalar.-Samarqand qovunlari. Samarqand 2008 yil.
3. http://www.agro.uz/uzb/iktisodiyot/
4. http://sibsadovod.ru/arbuz_stolovyi.html